

JÁMIYETLIK HÁM EKONOMIKALÍQ ILIMLER

Tariyx. Huqıqtanıw. Ruwqıylıq tiykarları

OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMASI: TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

A.R.Abatov – katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Orol muammosi, OQXJ, ekologiya, atrof-muhit, xalqaro tashkilotlar, loyihalar, tabiyat, omil, samarali hamkorlik, Orolbo'yi aholisi.

Ключевые слова: Аральская проблема, МФСА, экология, окружающая среда, международные организации, проекты, природа, фактор, эффективное сотрудничество, население Приаралья.

Key words: The Aral Sea problem, IFAS, ecology, environment, international organizations, projects, nature, factor, effective cooperation, population of the Aral Sea region.

Kirish. Hammamizga ma'lumki, suvga va tabiyatga bepisand munosabat oqibatida 1960-yillarning oxirida Orol fojiasi boshlandi. 1960-yillarda dunyoning to'rtinchi eng yirik ko'li bo'lgan Orol dengizining sathi oxirgi 40 yil davomida ikki baravar kichrayib ketdi. Suv darajasi 18 metrga pasaydi. Mavjud bo'lgan suv miqdori esa - besh baravar kamaydi. Buning oqibatida atrof-dagi yerlar sho'rlanib, hududning fauna, flora va inson sog'lig'iga keskin ta'sir ko'rsatgan ekologik ofat yuz berdi.

Bugungi kunda BMT va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu maxsus dasturlar qabul qilinmoqda.

Ma'lumki, 1992-yil 27-28-avgustda Nukusda Orol va Orolbo'yi muammolari bo'yicha Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo va MDHning boshqa mamlakatlari prezidentlari, parlamentlari va jamoatchiligiga Orol dengizi muammolari bo'yicha Xalqaro jamg'arma tashkil etish va Orol dengizi havzasi muammolari to'g'risida bitim, suv resurslarini boshqarish bo'yicha huquqiy va me'yoriy hujjatlarni imzolash zarurligi to'g'risida Murojaat qabul qilindi.

1993-yil 4-yanvar Toshkentda O'rta Osiyo davlat rahbarlarining tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Asqar Akayev, Tojikiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi Imomali Rahmonov, Turkmaniston Prezidenti Saparmurat Niyozov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi.

O'zaro fikr almashish natijasida davlat rahbarlari hukumatlarga narx siyosati, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, energiya ta'minoti, Orol va Kaspiy dengizi muammolari bilan bog'liq masalalarni mintqa davlatlari manfaatlari yo'lida ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berishdi.

Tomonlar Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini tashkil yetishga qaror qilishdi. Jamg'arma yig'ilishlarini Qizilo'rda, Nukus va Toshauz shaharlarida o'tkazish zarur deb topildi. Uchrashuv ishtirokchilari davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvlarini muntazam ravishda o'tkazish maqsadga muvofiqligi to'g'risida kelishib oldilar.

Ushbu uchrashuv natijasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlat rahbarlari tomonidan Qo'shma bayonot qabul qilindi va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining tuzilishining tamal toshi quyildi.

Natijalar. 1993-yil 26-martda Qizil-O'rda shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal qilish bo'yicha

qo'shma harakatlar to'g'risida Shartnoma imzolandi. Unda "Mintaqadagi atrof-muhitni sog'lomlashtirish va Orol mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash" mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi va Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (OQXJ) tashkil topdi [6:94]. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi to'g'risidagi Nizom hamda Orol havzasi muammolari bo'yicha davlatlararo Kengash tarkibi tasdiqlandi. Bundan tashqari O'zbekiston va Qozog'iston davlat rahbarlari Orol dengizi va Orolbo'yi muammosini hal yetish, atrof-muhitni tiklash va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha birgalikdagi harakatlar to'g'risida bitim hujjatlarini imzoladilar. Shundan kelib chiqib 26-mart sanasida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil topgan kun sifatida belgilanib kelinmoqda.

Qizil-O'rda shahrida 1993-yil 26-martda bo'lib o'tgan konferensiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi.

1. Orol dengizi va Orolbo'yi muammosini hal yetish, Orolbo'yi mintaqasini yekologik tiklash va ijtimoiy-ekologik rivojlantirish bo'yicha birgalikdagi harakatlar to'g'risida bitimlar.

2. Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha davlatlararo Kengash tarkibi to'g'risida.

3. "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi to'g'risidagi Nizom" to'g'risida.

4. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi Prezidentini saylash va jamg'arma Kengashini shakllantirish to'g'risida

5. "Birlashgan Millatlar tashkilotiga murojaat" haqida

6. Nukusda Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha davlatlararo Kengashning qo'shma majlisini o'tkazish to'g'risida [6:141].

Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal yetish, Orol mintaqasini yekologik tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shma harakatlar to'g'risida bitim qabul qilindi [7:23].

Ushbu Konferentsiyada ko'tarilgan 5-masaladagi "Birlashgan Millatlar tashkilotiga murojaat" haqida xujjatda "Siz, Janob Bosh kotib, shuningdek, barcha mamlakatlar, BMT a'zolari va barcha yaxshi niyatli xalqlarga Orolbo'yida yashovchi aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni, Orolni qutqarish va uning havzasi atrof-muhitini yaxshilash bo'yicha loyiha va dasturlarni amalga oshirishni so'rab murojaat qilamiz" delingan. 1992-1996 yillarda esa Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh kotibi sifatida esa Misrlik Butros Butros-Goli ishlagan [9].

1993-yil 26-mart kuni Qizilo'rda shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Orolni qutqarish xalqaro

jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqladilar va Nursulton Nazarboevni Fond Prezidenti yetib sayladilar. Ular jamg'arma filiali va direksiya tuzilishi to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqdilar. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi boshqaruvi Ijrochi direktori sifatida Qozog'iston Respublikasidan Uzakbay Karamanov tayinlandi. Tulegen Aldikulovich Marenov-jamg'arma Ijrochi direktorining o'rinbosari etib saylandi [1:75]. Uzakbay Karamanov Ijrochi direktori sifatida ikki yil 1993-1994-yillarda faoliyat olib bordi. Jamg'arma Kengashining birinchi tashkiliy yig'ilishi 1993-yil aprelda Olmaotada bo'lib o'tdi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining vazifalari: ilmiy-tadqiqot va tadqiqot ishlarini ta'minlovchi moliya-kredit va investitsiya faoliyatini amalga oshirish: Orol dengizi havzasida yekologik vaziyatni yaxshilash va Orolni qutqarish bo'yicha dastur va loyihalarni amalga oshirish ishlarini qiladi. 1993-yil 10-iyul kuni Toshkentda Orol muammolari bo'yicha davlatlararo Kengashning birinchi tashkiliy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda OMDK Ijroiya qo'mitasining tuzilishi va qoidalarini tasdiqlandi [1:87].

Muhokama. Arxiv xujjatlarni o'rganish natijasida shu narsa ma'lum buldiki, OQXJ tashkil qilinganda Markaziy Osiyodagi xar bir Respublika o'z milliy byudjetining 1 foizini jamg'arma hisobiga o'tkazib berishi kerak bo'lsa ham, biroq muddatgacha bu masala muammoligicha qoldi. Masalan, 1994-yil 6-sentyabrda Olma-Ota shahrida OQXJning navbattagi Kengashi bo'lib o'tdi. Unda OQXJ mablag'larini shakllantirish to'g'risida Qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatda «...ta'kidlash joizki, bir yarim yildan buyon Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari Qizilo'rda shahrida fondni tashkil yetuvchi davlatlar rahbarlari imzolagan kelishuvni amalga oshirmayapti. 1993-yil 26-martda olti oy ichida har bir Respublika milliy daromadining bir foizining dastlabki hissasini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Lekin, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1994-yil 11-yanvarda Nukus shahrida va 1994-yil iyunda Orol dengizi bo'yicha davlatlararo Kengashda qabul qilingan qarorlari masalani hal qilishni tezlashtirmadi»- deyilgan [3:85].

OQXJ Prezidenti lavozimini Markaziy Osiyo davlatlari prezidentlari orasidan 3 yil muddatga navbatma-navbat saylanadigan Prezident boshqaradigan bo'ldi [4:159]. Jamg'armaning 32 yillik tarixida uning prezidentlari saylandi:

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.Nazarboyev (1993-1996).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov (1997-1999).

Turkmaniston Prezidenti S.Niyozov (1999-2001).

Tojikiston Respublikasi prezidenti I.Raxmonov (2002-2008-Qirg'iziston Respublikasining OQXJ rahbariyatini qabul qilishdan bosh tortgani sababli muddat uzaytirildi).

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.Nazarboev (2009-2012).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov (2013-2016).

Turkmaniston prezidenti Berdimuhammedov (2016-2019).

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon (2016-2019).

2024-yildan buyon Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev jamg'arma Prezidenti hisoblanadi.

OQXJ tuzilmasi va uning maqomi to'g'risidagi bitim Ashxobodda (Turkmaniston) Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida imzolandi va 1999-yil 9-aprelda tasdiqlandi [4:50].

OQXJ boshqaruvi. Fondni boshqarish ta'sischi davlatlar bosh vazirlarining o'rinbosarlaridan iborat bo'lgan boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arma kengashi o'z majlislarini yiliga kamida ikki marta o'tkazadi. Ta'sischi davlatlar qo'shimcha Kengash yig'ilishlarini o'tkazish bo'yicha takliflar kiritishlari mumkin.

OQXJ Nukus filiali 1996-yil 1-fevralda OQXJ ijro etuvchi direksiya Ijrochi direktori A.Nurushevning 1996 yil 22-yanvardagi 80-L-son buyrug'i bilan tashkil etilgan (1993-yil 26-martda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining qarori bilan tasdiqlangan OQXJ to'g'risidagi Nizomga muvofiq).

OQXJ agentligi O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 7-yanvardagi 03/105-14-son Qarori asosida tashkil etilgan.

1998-yil 26-yanvarda O'zbekiston Bosh vazirining 1-o'rinbosari I.Jurabekov OQXJ agentligi Ustavini tasdiqladi. 1998-yil 12-martda OQXJ boshqaruvi OQXJ agentligini tashkil etish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi. Ushbu qaror 1998-yil 12-mayda OQXJ Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan tasdiqlangan. Tashkil etilgan bu agentlik xalqaro tashkilotning vakolatxonasi maqomiga ega bo'lgan OQXJning ishchi organi hisoblanadi. Unini birinchi rahbari 1998-2006-yillarda Ginyatullin Rim Abdullaevich bo'ldi.

Shuni ta'kidlash joiz, aynan OQXJ faoliyati doirasida "Orol dengizining havzasida ekologik ahvolni yaxshilash bo'yicha aniq harakatlar dasturi" (ODHD- 1) qabul qilinib, 1995-yildan 2003-yilgacha amalga oshirildi [2:56]. Dasturining birinchi bosqichida Jahon bankining texnik va moliyaviy ko'magi bilan 9 ta loyiha amalga oshirildi: 1. Suv resurslarini boshqarish bo'yicha mintaqaviy strategiya; 2. Suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, to'g'onlar va suv omborlarining barqarorligini ta'minlash;

ODHD dasturining maqsadi Orol dengizi havzasida yekologik vaziyatni barqarorlashtirish, uning atrofidagi tabiiy ofatlar zonasini tiklash, havzada suv va yer resurslarini boshqarishni yaxshilash, dasturni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha mintaqaviy tashkilotlarning salohiyatini kuchaytirish.


ODHD dasturining ba'zi tadbirlar quyidagilar:

-suvni taqsimlash, suvdan oqilona foydalanish va suv resurslarini muhofaza qilishning umumiy strategiyasini ishlab chiqish;

-suv resurslari va ulardan foydalanishni hisobga olishning yagona tizimini, shuningdek tabiiy muhit holatini monitoring qilishning mintaqaviy tizimini ishlab chiqish va joriy yetish;

ODHD-1 bo'yicha ishlar ikki bosqichga bo'lingan: birinchi bosqichi tayyorgarlik bosqichi 3 yildan 5 yilgacha va taxminan 30 million AQSh dollarini, ikkinchi bosqichi - 10 yildan 15 yilgacha, ishning qiymati esa taxminan 500-750 million AQSH dollarini tashkil etadi [2:116]. "ODHD-2" dasturi Davlat rahbarlarining Dushanbedagi yig'ilishida 2002-yil 6-oktyabrda qabul qilgan qaroriga muvofiq ishlab chiqildi.

OQXJ Ijroiya qo‘mitasining dislokatsiyasi



Amalga oshirish muddati 2003-2010-yillarni, umumiy qiymati 1 933,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. ODHD-2 dasturi OQXJ Kengashi tomonidan 2002-yil 28-avgustda tasdiqlandi [1:85]. Dastur 14 ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga oldi.

2015-2018-yillar uchun kompleks dasturi qabul qilindi (ODHD-3 dasturi doirasida)". 2018-yil 30-yanvarda OQXJ Kengashining Ashxobodagi yig‘ilishida ODHD-4 Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha harakatlar dasturini ishlab chiqishga qaror qilindi [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, OQXJ mintaqadagi ekologik inqirozni bartaraf qilishda asosiy rol ni bajarmoqda. Biroq amalga oshirilgan loyihalar Orol dengizi havzasidagi barcha muammolarni hal yetishga va mintaqadagi ekologik inqirozning to‘liq to‘xtatilishiga tubdan ta’sir ko‘rsata olmadi. Ayrim loyihalari, masalan, "Mintaqaviy suv strategiyasining asosiy qoidalari" dasturi hali ham to‘g‘ri amalga oshirilmagan.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-114-фонд, 1-рўйхат, 40-йиғма жилд.
2. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-114-фонд, 1-рўйхат, 123-йиғма жилд.
3. Ўзбекистон Марказий Архиви М-37-фонд, 1-рўйхат, 5285-йиғма жилд.
4. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-37-фонд, 1-рўйхат, 4251-йиғма жилд.
5. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-37-фонд, 1-рўйхат, 8714-йиғма жилд.
6. Ўзбекистон Марказий Архиви, М-37-фонд, 1-рўйхат, 3921-йиғма жилд.
7. Соколов В. Роль и значение МФСА в развитии герионального сотрудничества. –Тошкент: Май. 2023.
8. Nurmetov I. Ўзбекистон Республикасининг халқаро экологик алоқалари тарихи. Монография. –Урганч: 2024.
9. wikipedia.org

REZYUME. Bu maqolada Orolbo‘yi aholisi oldida turgan keskin muammolarni hal etishda asosiy rollardan birini bajarayotgan xalqaro tashkilot Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi haqida so‘z boradi. OQXJning tashkil etilishi va faoliyati, amalga oshirgan loyihalari, jamg‘arma oldida turgan dolzarb muammolar haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье речь идет о Международном фонде спасения Арала, международной организации, которая выполняет одну из ключевых ролей в решении острых проблем, стоящих перед жителями Приаралья. Также обсуждаются вопросы создания и деятельности Международного фонда спасения Арала, реализуемые проекты, актуальные проблемы, стоящие перед фондом.

SUMMARY. This article is about the International Fund for Saving the Aral Sea, an international organization that plays a key role in solving acute problems facing the residents of the Aral Sea region. Issues related to the creation and operation of the International Fund for Saving the Aral Sea, ongoing projects, and current issues facing the fund are also discussed.

AXLOQ VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

G.J.Djamilova – *assistent o‘qituvchi*

O.Y.Joldasbayev – *assistent o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: odob-axloq, ijtimoiy ong, tartib-intizom, insonparvarlik, tarbiya, ezigulik, fazilat.

Ключевые слова: нравственность, социальное сознание, порядок, гуманизм, воспитание, доброта, добродетель.

Key words: morality, social consciousness, order, humanism, upbringing, kindness, virtue.

Kirish. Insoniyat jamiyati tarixan ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq meyorlari va ma’naviy qadriyatlar asosida shakllanib va rivojlanib kelgan. Har bir davrning taraqqiyot darajasi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar sifati va jamiyatning barqarorligi, avvalo, undagi axloqiy qadriyatlarning holatiga bog‘liq bo‘lgan. Insan odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, uning butun hayoti va faoliyati davomida har – xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Axloq so‘zining lug‘aviy ma’nosi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tahlil qilamiz. Jamoa bo‘lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalariga amal qilishni taqozo qiladi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan obektiv aloqadorlik, yani ijtimoiy munosabat – xulq-atvor, odob, xatti-harakat, tamoyil va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi [1:6].

Adabiyotlar tahlili. Axloqning jamiyatdagi ahamiyati haqida Amerikalik siyosatchi Benjamin Franklin o‘zining

yutuqlari siriga to‘xtalar ekan “men hech narsa haqida yomon so‘z aytmayman. Lekin har kim haqida bilgan hamma yaqshiliklarini aytib yuraman” degan edi. Siyosatchi bu fikri bilan axloqiy normalarning umumiy munosabotlarida juda muhim ekanligini ko‘rsatadi. Huquqiy tarafdan qaranganda axloq majburiy bo‘lmagan atamalar bilan ifodalanadi, jamiyat axloqiy holatining darajasi, kesimi sifatida qabul qilinadigan, belgilangan qoidalarga mutanosib amal va harakatlarda amalga oshiriladi. Axloq, huquqqa nisbatan ancha keng qamrovlidir. Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o‘z aksini topadi. Muayyan jamiyatda huquqiy qonun-qoidalar o‘sha mintaq xalqi tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, meyorlar, shuningdek, nisbatan umumiy xususiyatga ega bo‘lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi. Axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo‘lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xildir: axloq asosan tushuntirish, pand-o‘gitlar vositasida ish ko‘rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi.